XALQ DEPUTATLARI MARG'ILON SHAHAR KENGASHI

Q A R O R I

2022 - yil 16 - aprel VI-51-43-11-168-K/22 Marg‘ilon shahar hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16 oktabrdagi “Geografik ob’ektlarning nomlarini tartibga solish chora tadbirlari haqida”gi 295-sonli qaroriga asosan Marg‘ilon shahar Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash komissiyasi shahardagi qabriston va ziyoratgohlar nomlarini Kadastr agentligining Toponomika xizmati tomonidan davlat ekspertizasidan o‘tganligi borasida amalga oshirilgan ishlar haqida.

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16 oktabrdagi “Geografik ob’ektlarning nomlarini tartibga solish chora tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 11 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida 2023 yilda aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” 710-sonli va viloyat hokimining 2020 yil 14 noyabrdagi 304-qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida shaharda amaldagi qonun talablariga zid bo‘lgan holatlarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar belgilanib amalga oshirilmoqda, ya’ni mahalla fuqarolar yig‘inlarining sxematik reja(karta)lari Kadastr agentligining Marg‘ilon shahar bo‘limi bilan tahliliy o‘rganilmoqda, nomlanmagan ko‘chalarni nomlash va raqamlanmagan xonadonlarni raqamlash va ularni ildirish ishlari davom etmoqda. Qabriston va ziyoratgohlar nomini milliy g‘oyamiz va mafkuramiz talablari asosida qayta nomlash, jumladan joylarning qadimiy

nomlarini tiklash yuzasidan tushgan takliflar ko‘rib chiqildi.

Yuqoridagilarni inobatga olib O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16 oktabrdagi “Geografik ob’ektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 295-sonli qaroriga muvofiq shahar hududiy komissiyasi takliflari hamda O‘zbekiston Respublikasi ”Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 24-moddasiga asosan xalq deputatlari Marg‘ilon shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16 oktabrdagi “Geografik ob’ektlarning nomlarini tartibga solish chora tadbirlari haqida”gi 295-sonli qaroriga asosan Marg‘ilon shahar Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash komissiyasi shahardagi qabriston va ziyoratgohlar nomlarini Kadastr agentligining Toponomika xizmati tomonidan davlat ekspertizasidan o‘tganligi borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan shahar hokimining maslahatchisi U.Maxmudovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Marg‘ilon shahar Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash komissiyasiga shahardagi qabriston va ziyoratgohlar nomlarini Kadastr agentligining Toponomika xizmati tomonidan davlat ekspertizasidan o‘tganligi **to‘g‘risida** 1-ilovaga asosan Davlat reestriga kiritish topshirilsin.

3. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Ta’lim, sog‘likni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya bo‘yicha doimiy komissiya raisi (Z.G‘ofurova) hamda shahar hokimining maslahatchisi U.Maxmudov zimmasiga yuklatilsin.

Marg'ilon shahar hokimi **A.Ziyavitdinov**

Xalq deputatlari Marg‘ilon shahar
Kengashining
2022 yil 16 apreldagi
VI-51-43-11-168-K/22-son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari shahar Kengashining 2022yil “09” aprel kungi VI-51/6-sonli sessiya qaroriga 1-ilova

Marg‘ilon shahar Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash komissiyasi shahardagi qabriston va ziyoratgohlar nomlarini Kadastr agentligining Toponomika xizmati tomonidan davlat ekspertizasidan o‘tganligi **to‘g‘risida MA’LUMOT.**

T/r	**Shahar**	**Geografik ob’ekt joylashgan MFY**	**Geografik ob’ekt turi**	**Geografik ob’ektning yangi nomi**	**Geografik ob’ektning amaldagi nomi**
1.	Marg‘ilon	Yo‘rmado‘z	Qabriston	**Kaptarli mozor**	Kaptarli mozor
2	Marg‘ilon	Xo‘ja Forso	Qabriston	**Xo‘ja Forso**	Xo‘ja Forso
3	Marg‘ilon	Maorif	Qabriston	**Ibrohimjon Dovidov**	Ibrohimjon Dovidov
4	Marg‘ilon	Mashad	Qabriston	**Mashhad**	Mashad
5	Marg‘ilon	Burhoniddin Marg‘iloniy	Qabriston	**Oqmasjid**	Oq masjid
6	Marg‘ilon	Rohat	Qabriston	**Dehqonobod**	Dehqonobod
7	Marg‘ilon	Teraktagi	Qabriston	**Teraktagi**	Teraktagi
8	Marg‘ilon	Yangihayot	Qabriston	**Juftterak**	Juft terak
9	Marg‘ilon	Bobur	Qabriston	**Gumbaz**	Gumbaz
10	Marg‘ilon	Ipak yo‘li	Qabriston	**Xo‘ja Egiz**	Xo‘ja Egiz
11	Marg‘ilon	Tuttagi	Qabriston	**G‘aribota**	G‘arib ota
12	Marg‘ilon	Yangiobod	Qabriston	**Yangiobod**	Yangi obod
13	Marg‘ilon	Nadirmat	Qabriston	**Qirguli**	Qirguli
14	Marg‘ilon	Yoyilma	Qabriston	**Xasti Ma’oz**	Xasti Ma’oz
15	Marg‘ilon	Charog‘on	Qabriston	**Sayyid Abdullaxon Xo‘ja**	Ulug‘ Hazrat
16	Marg‘ilon	Yo‘rmado‘z	Qabriston	**Shoh Mansur**	Shoh Mansur
17	Marg‘ilon	Yangihayot	Qabriston	**Bahromxo‘ja eshon**	Bahrom Xo‘ja Eshon
18	Marg‘ilon	Toshkesar	Qabriston	**Go‘dakmozor**	Go‘dak Mozor
19	Marg‘ilon	Yoyilma	Qabriston	**Yahudiylar**	Yahudiylar
20	Marg‘ilon	Nadirmat	Qabriston	**Nadirmat**	Nadirmat
1	Marg‘ilon	Yoyilma	Ziyoratgoh	**Xo‘ja Ma’oz va Mo‘yi Muborak**	Xo‘ja Ma’oz va Mo‘yi Muborak
2	Marg‘ilon	Xo‘ja Forso	Ziyoratgoh	**Xo‘ja Muxammad Forso**	Xo‘ja Forso
3	Marg‘ilon	Charog‘on	Ziyoratgoh	**Sayyid Abdullohxon**	Sayyid Abdullohxon
4	Marg‘ilon	Mashad	Ziyoratgoh	**Ulug‘mozor**	Ulug‘ mozor
5	Marg‘ilon	Yo‘rmado‘z	Ziyoratgoh	**Piri Siddiq**	Puri Siddiq
6	Marg‘ilon	Nadirmat	Ziyoratgoh	**Kirgilaziz**	Kirgilaziz